



THE IMPORTANCE OF INCORPORATION IN THE SYSTEMATIZATION OF LEGISLATION

Shokhrukhbek Zokirov

Sarbov University

Lecturer of the Department of Legal Sciences

Email: shohruxzokirov2320@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: systematization of legislation, incorporation, normative legal acts, codification, consolidation, legal system, digital incorporation, legal information, Lex.uz, legal monitoring, rule of law, legal conflict, legal reforms, electronic legal database.

Received: 13.05.26

Accepted: 14.05.26

Published: 15.05.26

Abstract: This article comprehensively analyzes the theoretical and legal essence of incorporation as one of the important forms of systematization of legislation, its role in ensuring the stability of the legal system, and its practical significance. During the research, the official and unofficial forms of incorporation, chronological and systematic types, as well as their role in increasing the efficiency of the use of legal information are elucidated. In the context of the processes of systematization and digitalization of legislation in the Republic of Uzbekistan, modern mechanisms of incorporation, particularly the concept of “dynamic digital incorporation,” are scientifically substantiated. Furthermore, the diagnostic function of incorporation in regularly updating normative legal acts on a unified electronic platform, identifying legal conflicts, and eliminating gaps in legislation is revealed. As a result of the study, scientific and practical proposals and recommendations aimed at improving the national legislative system, ensuring legal certainty and transparency, and expanding access to legal information have been developed.

QONUNCHILIKNI TIZIMLASHTIRISHDA INKORPORATSIYANING AHAMIYATI

Shoxruxbek Zokirov

Sarboon universiteti

“Huquqiy fanlar kafedrasii” o‘qituvchisi

Email: shohruxzokirov2320@gmail.com

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: qonunchilikni tizimlashtirish, inkorporatsiya, normativ-huquqiy hujjatlar, kodifikatsiya, konsolidatsiya, huquqiy tizim, raqamli inkorporatsiya, huquqiy axborot, Lex.uz, huquqiy monitoring, qonun ustuvorligi, huquqiy kolliziya, huquqiy islohotlar, elektron huquqiy baza.

Annotatsiya: Mazkur maqolada qonunchilikni tizimlashtirishning muhim shakllaridan biri bo‘lgan inkorporatsiyaning nazariy-huquqiy mohiyati, uning huquqiy tizim barqarorligini ta‘minlashdagi o‘rni hamda amaliy ahamiyati kompleks tarzda tahlil qilingan. Tadqiqot davomida inkorporatsiyaning rasmiy va norasmiy shakllari, xronologik va tizimli turlari, shuningdek, ularning huquqiy axborotdan foydalanish samaradorligini oshirishdagi roli yoritib berilgan. O‘zbekiston Respublikasida qonunchilikni tizimlashtirish va raqamlashtirish jarayonlari kontekstida inkorporatsiyaning zamonaviy mexanizmlari, xususan, “dinamik raqamli inkorporatsiya” konsepsiyasi ilmiy asoslangan holda ishlab chiqilgan. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarni yagona elektron platformada muntazam yangilab borish, huquqiy kolliziyalarni aniqlash va qonunchilikdagi bo‘shliqlarni bartaraf etishda inkorporatsiyaning diagnostik funksiyasi ochib berilgan. Tadqiqot natijasida milliy qonunchilik tizimini takomillashtirish, huquqiy aniqlik va shaffoflikni ta‘minlash hamda huquqiy axborotdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

ЗНАЧЕНИЕ ИНКОРПОРАЦИИ В СИСТЕМАТИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА

Шохрухбек Зокиров

Сарбоонский университет

Преподаватель кафедры «Правовые науки»

Email: shohruxzokirov2320@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: систематизация законодательства, инкорпорация, нормативно-правовые акты, кодификация, консолидация, правовая система, цифровая инкорпорация, правовая информатизация, Lex.uz, правовой мониторинг, верховенство закона, правовая коллизия, правовые реформы, электронная правовая база данных.

Аннотация: В данной статье комплексно анализируются теоретико-правовая сущность инкорпорации как одной из важных форм систематизации законодательства, её роль в обеспечении стабильности правовой системы, а также практическое значение. В ходе исследования раскрываются официальные и неофициальные формы инкорпорации, хронологические и систематические виды, а также их роль в повышении эффективности использования правовой информатизации. В контексте процессов систематизации и цифровизации законодательства Республики Узбекистан научно обоснованы современные механизмы инкорпорации, в частности концепция «динамической цифровой инкорпорации». Кроме того, раскрыта диагностическая функция инкорпорации в регулярном обновлении нормативно-правовых актов на единой электронной платформе, выявлении правовых коллизий и устранении пробелов в законодательстве. По результатам исследования разработаны научно-практические предложения и рекомендации, направленные на совершенствование национальной системы законодательства, обеспечение правовой определённости и прозрачности, а также расширение возможностей использования правовой информатизации.

Kirish. Zamonaviy huquqiy davlat qurish borasidagi strategik intilishlar hamda qonun ustuvorligi tamoyilining amaliyotda to'laqonli ta'minlanishi qonunchilikni tizimlashtirish masalasining nazariy va amaliy dolzarbligini yanada oshirmoqda. Huquqiy tizimning barqarorligi, ichki izchilligi va samaradorligi jamiyat hayotining barcha jabhalarida huquqiy tartibotni mustahkamlashning fundamental shartidir. Bugungi kunda normativ-huquqiy hujjatlar majmuasining hajmi va tarkibiy murakkabligi, ularning turli iyerarxik darajalarda qabul qilinishi, shuningdek, huquqiy normalarning o'zaro bog'liqligi va dinamik xarakteri tizimlashtirishga bo'lgan ehtiyojni keskin kuchaytirmoqda. Bu holat, o'z navbatida, huquqni qo'llovchi subyektlar, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari uchun normativ materialdan samarali foydalanish jarayonini

murakkablashtirib, huquqiy adaptatsiya xatolarini yoki noto'g'ri interpretatsiya qilish xavfini yuzaga keltirmoqda.

Qonunchilikni tizimlashtirishning asosiy usullaridan biri sifatida e'tirof etiluvchi inkorporatsiya huquqiy normalarni tartibga solish, ularni yagona, qulay va tushunarli shaklga keltirishga xizmat qiladi. Inkorporatsiya, kodifikatsiya va konsolidatsiya kabi boshqa tizimlashtirish usullaridan farqli o'laroq, qonun hujjatlarining mazmuniga o'zgartirish kiritmasdan, balki ularni to'plash, qayta ishlash va ma'lum bir mantiqiy tizimga solishni nazarda tutadi. Bu jarayon mavjud normativ-huquqiy hujjatlarni tahrirlash, ulardagi eskirgan, o'z kuchini yo'qotgan yoki takroriy normalarni aniqlash va chiqarib tashlash, shuningdek, ularni mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish orqali huquqiy materialni ratsional tartibga soladi. Mazkur jarayon huquqiy bazaning shaffofligi va ochiqligini ta'minlash, undan foydalanishni soddalashtirish, normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasidagi kolliziyalarni minimallashtirish hamda aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli huquqiy islohotlar jarayonida qonunchilikni tizimlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qabul qilinayotgan yangi qonunlar, kodekslar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar majmuasi huquqiy tizimning dinamik rivojlanishini ta'minlaydi. Biroq, bu jarayon bilan birga, inkorporatsiya mexanizmlarini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Ilmiy adabiyotlarda qonunchilikni tizimlashtirishning turli jihatlari, jumladan, kodifikatsiya va konsolidatsiya masalalari keng o'rganilgan bo'lsada, inkorporatsiyaning nazariy-huquqiy asoslari, uni amaliyotga tatbiq etishning zamonaviy mexanizmlari hamda hozirgi sharoitlardagi ahamiyati chuqur va har tomonlama tahlil qilinmagan.

Ushbu maqolada inkorporatsiyaning qonunchilikni tizimlashtirishdagi o'rni va ahamiyati kompleks tarzda o'rganiladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi uning inkorporatsiyaning nazariy asoslarini tizimli tahlil qilish, uning huquqiy davlat qurilishi jarayonidagi strategik ahamiyatini ochib berish, shuningdek, O'zbekiston sharoitida inkorporatsiya jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha aniq ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Mavjud muammolarni hal etishda inkorporatsiyaning imkoniyatlarini kengaytirish, uning samaradorligini oshirish orqali huquqiy tizimning barqarorligi va izchilligini ta'minlash ushbu tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi.

Qonunchilikni tizimlashtirish zamonaviy huquqiy tizimlarning samaradorligi, barqarorligi va funksional salohiyatini ta'minlashda fundamental ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayon huquqiy

normalarning izchilligini, tushunarligini, shaffofligini hamda amaliyotda samarali tatbiq etilishini kafolatlashga qaratilgan bo‘lib, huquq ijodkorligi va huquqni qo‘llash faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda qonunchilikni tizimlashtirishning bir qator shakllari, jumladan, kodifikatsiya, konsolidatsiya va inkorporatsiya kabi usullari atroflicha muhokama etiladi. Mazkur tadqiqot aynan inkorporatsiyaning qonunchilikni tizimlashtirish jarayonidagi o‘rni va strategik ahamiyatini chuqur ilmiy tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Huquqshunoslik adabiyotlarida inkorporatsiya normativ-huquqiy hujjatlarni ularning mazmunini o‘zgartirmagan holda mavjud shaklda to‘plamlar, majmualar yoki zamonaviy elektron bazalarga tizimli joylashtirish faoliyati sifatida ta’riflanadi. Bu tizimlashtirishning eng oddiy, ammo eng keng tarqalgan shakli bo‘lib, huquqiy axborotning mavjudligini oshirish va unga kirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston huquqshunosligida inkorporatsiya masalasiga oid ilmiy ishlar mavjud bo‘lib, ular asosan qonunchilikni tizimlashtirishning umumiy nazariy jihatlari doirasida ko‘rib chiqiladi. Zamonaviy huquqiy davlatni shakllantirish jarayonida qonunchilik tizimining izchilligi, barqarorligi va samaradorligini ta’minlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Normativ-huquqiy hujjatlar sonining ortib borishi, ularning murakkablashuvi hamda turli huquqiy normalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik qonunchilikni tizimlashtirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Shu bois qonunchilikni tizimlashtirish huquqiy davlat qurilishining muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Qonunlarni inkorporatsiya yo‘li bilan tizimlashtirish deyarli barcha mamlakatlarda qo‘llaniladi. Bunda qonun hujjatlari bir necha jilddan iborat to‘plam shaklida chop etilib, ular qabul qilingan sanasi bo‘yicha (xronologik tartibda), alifbo asosida yoki boshqa muhim belgilariga qarab joylashtiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi ham mustaqillikning ilk yillaridan boshlab qabul qilingan qonunlarni “O‘zbekiston Respublikasining yangi qonunlari” nomli ko‘p jildli xronologik to‘plam tarzida nashr etgan. Hozirgi vaqtda esa “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami” chop etib kelinmoqda.

Inkorporatsiyaning uch turi mavjud: a) rasmiy inkorporatsiya – qonunchilik hujjatlarini ularni chiqargan or ganlar tomonidan to‘plam va majmua shaklida tizimlashtirish; b) norasmiy inkorporatsiya – bunda tizimlashtirilgan to‘plamlar tuzish unga maxsus vakolatli bo‘lmagan idora va tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi (masalan, yuridik nashriyotlar tomonidan yoki ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan tizimlashtirish); d) ofitsioz inkorporatsiya – qonunchilik hujjatlarining ularni tizim lashtirish vakolatiga ega bo‘lgan idoralar tomonidan to‘plam yo majmua qilib chiqarilishi (odatda, bunday tizimlashtirish Adliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi)[1].

Rasmiy inkorporatsiya davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi va huquqiy kuchga ega bo'ladi. Norasmiy inkorporatsiya esa ilmiy muassasalar, yuridik nashriyotlar va boshqa subyektlar tomonidan amalga oshiriladi [3].

Qonunchilikni tizimlashtirishning asosiy shakllaridan biri bo'lgan inkorporatsiya normativ-huquqiy hujjatlarni mazmuniga o'zgartirish kiritmagan holda ma'lum tartib asosida jamlash va tizimlashtirishdan iboratdir [2]. Ushbu institut huquqiy axborotdan foydalanishni engillashtirish, qonunchilikdagi takrorlanish va kolliziyalarni aniqlash hamda huquqiy tartibga solish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [3].

Bugungi kunda O'zbekistonda qonunchilikni takomillashtirish va raqamlashtirish jarayonlari inkorporatsiyaning amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda. Xususan, Lex.uz kabi elektron huquqiy bazalar huquqiy axborotning ochiqligi va shaffofligini ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda [4].

Adabiyotlar tahlili. Mavjud ilmiy adabiyotlarni chuqur tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, inkorporatsiya asosan huquqiy hujjatlarni shunchaki to'plash va tartibga solishning nisbatan sodda usuli sifatida talqin etilgan. Biroq, zamonaviy axborot texnologiyalari va raqamli huquqiy tizimlarning jadal rivojlanishi sharoitida inkorporatsiyaning ahamiyati sezilarli darajada oshmoqda. U endi faqatgina hujjatlarni jamlash bilan cheklanib qolmay, balki qonunchilikni doimiy ravishda yangilab borish, uning dolzarbligini ta'minlash, huquqiy ziddiyatlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish uchun mustahkam asos yaratuvchi strategik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasida qonunchilikni takomillashtirish va raqamli huquqiy tizimlarni joriy etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar davrida inkorporatsiyaning yangi nazariy va amaliy jihatlarini kompleks o'rganish favqulodda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ushbu tadqiqot inkorporatsiyaning qonunchilikni tizimlashtirishdagi nazariy-metodologik va amaliy ahamiyatini chuqur tahlil qilish, uning zamonaviy huquqiy tizimlar uchun strategik vosita sifatidagi rolini ilmiy asoslash orqali mavjud ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Huquqshunoslik nazariyasida inkorporatsiya qonunchilikni tizimlashtirishning eng sodda va keng tarqalgan shakli sifatida tavsiflanadi. Bu jarayon davomida normativ-huquqiy hujjatlar xronologik, predmetli yoki alifbo tartibida jamlanadi va yagona tizimga solinadi [1].

X. Muxamedovning ta'kidlashicha, inkorporatsiya huquqiy tizimning ichki uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim vositadir [2]. Shuningdek, X. Odilqoriyev inkorporatsiyani huquqiy normalarni tizimli joylashtirish orqali huquqni qo'llash samaradorligini oshiruvchi mexanizm sifatida baholaydi [1].

Inkorporatsiya qonunchilikdagi normativ materiallarni tartibga solish orqali huquqiy tizimning shaffofligi va izchilligini ta'minlaydi. Ushbu jarayon huquqni qo'llovchi organlar, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari uchun normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanishni engillashtiradi [4].

T. Dauletmuratovning fikriga ko'ra, qonunchilikdagi kolliziyalarni bartaraf etishda normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish muhim vosita hisoblanadi [4]. Chunki inkorporatsiya jarayonida takrorlanayotgan normalar, huquqiy bo'shliqlar va qarama-qarshiliklar yaqqol namoyon bo'ladi.

Xorijiy huquqshunoslikda qonunchilikni tizimlashtirish, ayniqsa kodifikatsiya va inkorporatsiya institutlari huquqiy tizimning barqarorligini ta'minlashning muhim vositasi sifatida keng tadqiq etilgan. Mazkur ilmiy yondashuvlarda qonunlarni tizimlashtirish nafaqat texnik-huquqiy faoliyat, balki davlatning huquqiy siyosatini amalga oshirishning muhim mexanizmi sifatida baholanadi.

Xususan, G'arb huquqshunosligida ham inkorporatsiya va kodifikatsiya masalalari keng o'rganilgan. Piatek va Kahl Germaniya hamda Polsha tajribasini tahlil qilib, kodifikatsiya va inkorporatsiya huquqiy tizimning barqarorligini ta'minlashda muhim omil ekanligini qayd etadilar [5]. Mertens esa kodifikatsiya, dekodifikatsiya va rekodifikatsiya jarayonlarini o'zaro bog'liq huquqiy hodisalar sifatida talqin qiladi [6].

Xorijiy davlatlar tajribasida inkorporatsiya va kodifikatsiya huquqiy tizimni modernizatsiya qilishning asosiy vositalaridan biri sifatida qaraladi. Masalan, Salma Vengriya fuqarolik kodeksining qayta kodifikatsiyasi huquqiy tizimni zamonaviylashtirishga xizmat qilganini ta'kidlaydi [7].

Skrejnova Rim huquqining Bogemiya munisipal huquqiga inkorporatsiyasini tarixiy-huquqiy jihatdan tahlil qilib, inkorporatsiya huquqiy tizimlarning rivojlanishida muhim o'rin tutishini asoslaydi [10].

Makarov xalqaro huquq kodifikatsiyasini xalqaro huquqiy munosabatlarni tartibga solishning zarur vositasi sifatida baholaydi [15].

Yevropa Ittifoqi amaliyotida kodifikatsiya va konsolidatsiya byurokratik to'siqlarni kamaytirish hamda huquqiy tartibga solishni soddalashtirish vositasi sifatida qo'llaniladi [11].

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi inkorporatsiya institutining yangi bosqichga ko'tarilishiga olib keldi. Elektron huquqiy bazalar normativ-huquqiy hujjatlarni real vaqt rejimida yangilab borish imkonini yaratmoqda [8].

O'Meara va Kelliher esa bilimlarni kodifikatsiya qilish zamonaviy boshqaruvning muhim elementi ekanligini qayd etadilar [18].

G. Veiss umumiy huquq tizimida kodifikatsiyaning o'ziga xos "huquqiy jozibadorligi" mavjudligini ta'kidlab, kodifikatsiya va inkorporatsiya huquqiy normalarning yagona tizimga birlashtirilishini ta'minlashini qayd etadi [19]. Muallifning fikriga ko'ra, huquqiy tizimdagi parchalanish va normativ ko'plikni kamaytirish uchun qonunchilikni tizimlashtirish zarur hisoblanadi.

D. Stevenson kodifikatsiya jarayonining iqtisodiy va tashkiliy xarajatlarini tahlil qilib, qonunchilikni tizimlashtirish murakkab va uzoq muddatli jarayon bo'lsa-da, uning natijasida huquqiy aniqlik va barqarorlik ta'minlanishini asoslaydi [20]. Shu jihatdan inkorporatsiya kodifikatsiyaga tayyorgarlik bosqichi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

J. Kameron kodlar va kodifikatsiyaning tarixiy rivojlanishini o'rganib, tizimlashtirilgan qonunchilik davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishini ta'kidlaydi [21]. Muallifning fikricha, normativ-huquqiy hujjatlarning tartibli joylashtirilishi fuqarolar va davlat organlari uchun huquqiy axborotdan foydalanishni yengillashtiradi.

H. Ishikava Yaponiya fuqarolik kodeksining kodifikatsiya, dekodifikatsiya va rekodifikatsiya jarayonlarini tahlil qilib, zamonaviy huquqiy tizimlarda normativ bazani muntazam yangilab borish zarurligini ko'rsatadi [22]. Bu yondashuv inkorporatsiyaning dinamik xarakterga ega ekanligini anglatadi.

R. Means Lotin Amerikasi davlatlarida kodifikatsiya jarayonini o'rganar ekan, Kolumbiya Savdo kodeksi misolida tizimlashtirish iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishda muhim o'rin tutishini qayd etadi [23]. Shu bois qonunchilikni tizimlashtirish iqtisodiy islohotlarning ham muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

R. Albastroiu huquqning o'zi kodifikatsiyaning asosiy manbasi ekanligini ta'kidlab, normativ tizimning ichki mantiqiy uyg'unligini saqlashda tizimlashtirishning rolini alohida ko'rsatadi [24]. Bu esa inkorporatsiyaning huquqiy normalarni yagona tizim asosida jamlashdagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

A. Barak fuqarolik huquqini kodifikatsiya qilishning istiqbollarini tahlil qilib, huquqiy tizimning aniqligi va barqarorligini ta'minlash uchun tizimlashtirish zarur ekanligini asoslaydi [24]. A. Gambaro esa mulk huquqini kodifikatsiya qilish masalalarini yoritib, huquqiy institutlarning yagona tizimga solinishi huquqni qo'llash amaliyotini soddalashtirishini ta'kidlaydi [26].

Zivkovska va Przeska fuqarolik huquqini kodifikatsiya qilishning zamonaviy tendensiyalarini tahlil qilib, huquqiy tizimning izchilligini ta'minlashda inkorporatsiya va konsolidatsiyaning o'rni katta ekanligini qayd etadilar [27].

A. Lenaerts kodifikatsiyalashgan Yevropa shartnoma huquqida huquqni suiiste'mol qilishni taqiqlash prinsipining o'rnini tahlil qilib, tizimlashtirilgan qonunchilik huquqiy prinsiplarning yagona qo'llanishini ta'minlashini ko'rsatadi [28].

Gachiatori, Tamoschus va Grabher kodifikatsiyani nafaqat huquqiy, balki bilimlarni boshqarish vositasi sifatida ham talqin qiladilar [29]. Ularning fikriga ko'ra, zamonaviy yuqori texnologik va muhandislik sohalarida ma'lumotlarni tizimlashtirish samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvni huquqiy tizimga ham tatbiq etish mumkin.

Du Q., Ding N. va Li J. Xitoyda ekologik huquqni kodifikatsiya qilish masalalarini o'rganib, tabiiy resurslar huquqining tizimli rivojlanishida kodifikatsiya va inkorporatsiya muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar [30]. Bu ekologik qonunchilikning izchilligini ta'minlashda ayniqsa dolzarbdir.

Sxab-Buchinska o'z tadqiqotida shartnoma erkinligini cheklovchi baholovchi tushunchalar va ularning huquqiy tizimdagi o'rnini tahlil qiladi. Muallif qonunchilikni tartibga solish va tizimlashtirish jarayonida huquq normalarining yagona tizimga keltirilishi muhimligini ta'kidlaydi. Inkorporatsiya normativ-huquqiy hujjatlarni mazmunini o'zgartirmagan holda bir tizimga jamlash usuli sifatida shartnoma huquqidagi noaniq va baholovchi tushunchalarni tartibga solishda ahamiyat kasb etadi. Bu esa amaliyotda qonunlarni qo'llashda aniqlik va bir xillikni ta'minlaydi [8].

A.Mikel o'z maqolasida diniy va huquqiy institutlarning faoliyat yuritish shakllari yoritilgan. Muallif turli normativ manbalarni bir tizimda qo'llash zaruratini ko'rsatadi. Ushbu jihat inkorporatsiya tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, u turli huquqiy manbalarni tizimli ravishda jamlash va ularni yagona tartibga solish mexanizmini yaratishga xizmat qiladi. Inkorporatsiya orqali diniy va sekulyar institutlarga oid normativ qoidalarni izchil tizimlashtirish imkoniyati paydo bo'ladi [9].

Van Der Heijden va A. Keirse Yevropa shartnoma huquqi uchun eng maqbul huquqiy instrumentlarni tanlash masalasini tadqiq etadi. Mualliflar Yevropa davlatlaridagi huquq normalarini uyg'unlashtirish va yagona tizimga solish zarurligini asoslaydi. Ushbu jarayonda inkorporatsiya muhim vosita sifatida namoyon bo'lib, mavjud normativ hujjatlarni bir to'plamga kiritish va ularni tizimli ravishda tartibga solishga yordam beradi. Natijada huquqni qo'llash amaliyotida qulaylik, aniqlik va yagona yondashuv shakllanadi [14].

Voermans va hammualliflar Yevropa Ittifoqida kodifikatsiya va konsolidatsiya byurokratik to'siqlarni kamaytirish vositasi sifatida qo'llanilayotganini qayd etadilar [31]. Ularning fikricha, tizimlashtirilgan qonunchilik fuqarolar va biznes subyektlari uchun huquqiy aniqlikni oshiradi.

H. Veinla ekologik huquqni kodifikatsiya qilish masalalarini tahlil qilib, ekologik normativ-huquqiy hujjatlarning tarqoqligi huquqni qo'llash samaradorligini pasaytirishini ko'rsatadi [32]. Shu bois ekologik qonunchilikni tizimlashtirish barqaror rivojlanishning muhim omili hisoblanadi.

Umuman olganda, xorijiy ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, inkorporatsiya va kodifikatsiya zamonaviy huquqiy tizimlarning samaradorligi, barqarorligi va izchilligini ta'minlashning fundamental vositalaridan biridir. Ushbu tajribalarni O'zbekiston qonunchiligini tizimlashtirish amaliyotiga tatbiq etish milliy huquq tizimini modernizatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda "dinamik raqamli inkorporatsiya" modeli dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu model quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- normativ-huquqiy hujjatlarni yagona elektron bazada jamlash;
- hujjatlarning tarixiy tahrirlarini saqlash;
- o'zaro bog'liq huquqiy normalarga giperhavolalar berish;
- huquqiy monitoringni kuchaytirish.

Mazkur yondashuv O'zbekiston qonunchilik tizimini modernizatsiya qilish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot qonunchilikni tizimlashtirish jarayonida inkorporatsiyaning nazariy-huquqiy mohiyati, amaliy ahamiyati hamda zamonaviy raqamli huquqiy tizimlardagi o'rnini kompleks tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, unda umumilmiy va maxsus-yuridik tadqiqot metodlaridan keng foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini dialektik yondashuv tashkil etib, u inkorporatsiyaning tarixiy rivojlanishi, zamonaviy transformatsiyasi va qonunchilik tizimidagi funksional o'rnini o'zaro bog'liqlikda o'rganish imkonini berdi.

Tadqiqot davomida, avvalo, normativ-huquqiy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, huquqiy tizimlashtirishga oid ilmiy doktrina va xorijiy tajribalar doktrinal-huquqiy tahlil asosida o'rganildi. Ushbu usul inkorporatsiyaning mazmuni, turlari va qonunchilikni tizimlashtirishdagi o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda muhim metodologik vosita bo'lib xizmat qildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, rasmiy elektron huquqiy bazalar, ilmiy maqolalar, monografiyalar va xorijiy huquqshunos olimlarning ilmiy qarashlari tizimli ravishda tahlil qilindi.

Qiyosiy-huquqiy metod yordamida Germaniya, Fransiya, Rossiya Federatsiyasi, Yaponiya hamda Yevropa Ittifoqi davlatlarida qonunchilikni tizimlashtirish va inkorporatsiya amaliyoti o'rganilib, ularning milliy huquq tizimida qo'llanish mexanizmlari tahlil qilindi. Mazkur metod O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirishda ilg'or xorijiy tajribalarni aniqlash va ularni milliy huquq tizimiga moslashtirish imkonini berdi. Shuningdek, tarixiy-huquqiy metod asosida inkorporatsiya institutining shakllanish bosqichlari, uning tarixiy evolyutsiyasi hamda huquqiy davlat qurilishidagi ahamiyati o'rganildi.

Tadqiqot jarayonida sistemali tahlil usuli ham keng qo'llanilib, inkorporatsiya qonunchilik tizimining tarkibiy elementi sifatida boshqa tizimlashtirish shakllari — kodifikatsiya va konsolidatsiya bilan o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi. Mantiqiy-deduktiv va induktiv metodlar orqali inkorporatsiyaning nazariy asoslari umumiy huquqiy qoidalar va amaliy misollar asosida ilmiy jihatdan asoslandi. Kontent-tahlil usuli yordamida normativ-huquqiy hujjatlar, huquqiy axborot tizimlari va elektron bazalardagi ma'lumotlar tahlil qilinib, qonunchilikdagi kolliziyalar, takrorlanishlar va bo'shliqlar aniqlandi.

Bundan tashqari, tadqiqotda zamonaviy raqamli texnologiyalar va elektron huquqiy tizimlarning rivojlanishi sharoitida inkorporatsiyaning yangi shakli sifatida “dinamik raqamli inkorporatsiya” konsepsiyasining ilmiy-amaliy jihatlari ham o'rganildi. Mazkur yondashuv orqali huquqiy axborotni real vaqt rejimida yangilab borish, normativ-huquqiy hujjatlarning tarixiy tahrirlarini saqlash hamda o'zaro bog'liq huquqiy normalarni yagona elektron platforma asosida tizimlashtirish imkoniyatlari tahlil qilindi.

Muhokama va natijalar. Mazkur tadqiqot qonunchilik tizimini takomillashtirish kontekstida inkorporatsiya fenomenining nazariy-konseptual asoslari hamda amaliy ahamiyatini chuqur va kompleks o'rganish maqsadida ko'p bosqichli metodologik yondashuvga tayanadi. Tadqiqotning fundamental metodologik negizini huquqiy-komparativistik, tarixiy-huquqiy, mantiqiy-deduktiv va induktiv, shuningdek, sistemali tahlil uslublari tashkil etib, ular inkorporatsiya jarayonining mohiyatini, uning milliy va xorijiy huquq tizimlaridagi o'rni va tatbiq etilish xususiyatlarini har tomonlama yoritishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlar inkorporatsiyaning huquqshunoslik fanidagi o'rnini fundamental darajada tushunish, uning evolyutsiyasini kuzatish va zamonaviy qonunchilik amaliyotidagi o'ziga xosliklarini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot dizayni dastlab doktrinal tahlilga asoslanib shakllantirilgan bo'lib, bunda inkorporatsiya tushunchasining etimologiyasi, uning turlari, shakllari va qonunchilikni tizimlashtirish jarayonidagi o'ziga xos roli bo'yicha mavjud ilmiy qarashlar va kontsepsiyalar

chuqur kritik tahlilga tortiladi. Bu jarayonda huquqshunoslikning etakchi olimlari, xususan, [1, 2, 18] tomonidan ilgari surilgan fundamental g'oyalar va nazariy yondashuvlar atroflicha o'rganilib, ularning qonunchilikni tizimlashtirish nazariyasiga qo'shgan hissassi kompleks baholanadi.

Shuningdek, tadqiqotda qiyosiy-huquqiy tahlil usuli keng qo'llaniladi. Bu usul orqali inkorporatsiya institutining turli milliy huquq tizimlarida (jumladan, Germaniya, Fransiya, Rossiya Federatsiyasi va boshqa rivojlangan huquqiy tizimlarda) qonunchilikni tizimlashtirish amaliyotidagi o'rni, tatbiq etilish mexanizmlari va o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Bunday komparativistik yondashuv milliy qonunchilikni takomillashtirish uchun ilg'or xorijiy tajribalarni identifikatsiya qilish va ularni O'zbekiston sharoitlariga moslashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga zamin yaratadi.

Tarixiy-huquqiy tahlil esa inkorporatsiya g'oyasining evolyutsion rivojlanish trayektoriyasini, uning turli tarixiy davrlardagi transformatsiyalarini va qonunchilikni tizimlashtirish jarayonidagi tarixiy ahamiyatini ochib beradi. Bu tahlil inkorporatsiyaning huquqiy madaniyat va davlatchilik rivojlanishi bilan o'zaro bog'liqligini, shuningdek, uning zamonaviy huquqiy tizimdagi barqarorligining ildizlarini ko'rsatadi.

Yuqorida qayd etilgan davlatlarning tegishli qonunchilik hujjatlari, jumladan, ularning kodekslari, qonun to'plamlari, rasmiy nashrlari va huquqiy-axborot tizimlari o'rganilib, ularda inkorporatsiyaning qo'llanilish mexanizmlari, shakllari va samaradorlik mezonlari aniqlandi.

Huquq nazariyasi, konstitutsiyaviy huquq, ma'muriy huquq, fuqarolik huquqi va boshqa tegishli sohalardagi fundamental monografiyalar, dissertatsiyalar, ilmiy maqolalar, darsliklar va o'quv qo'llanmalar kompleks tahlil qilindi. Ushbu manbalar inkorporatsiyaning nazariy asoslarini, uning huquqiy tizimdagi o'rnini va funksional ahamiyatini chuqur anglashga xizmat qiladi.

Oliy sud qarorlari, huquqni qo'llash amaliyotiga oid sharhlar, tushuntirishlar va tavsiyalar inkorporatsiyalangan normalarning amaliyotda qanday tatbiq etilayotganini, ularning samaradorligini va huquqiy muammolarni hal etishdagi rolini baholashda muhim empirik asos bo'lib xizmat qildi.

Yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilishda huquqiy hermenevtika, deduktiv va induktiv yondashuvlar, shuningdek, kontent-tahlil usuli faol qo'llanildi. Bu usullar yig'ilgan ma'lumotlarning mazmunini chuqur o'rganish, inkorporatsiya jarayonining samaradorligini obyektiv baholash va uning qonunchilikni tizimlashtirishdagi strategik ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

Qonunchilikni tizimlashtirishning fundamental shakllaridan biri bo'lmish inkorporatsiyaning nazariy-metodologik va amaliy-qo'llash jihatlarini chuqur tahlil etish uning

milliy huquqiy tizimning barqarorligi va samaradorligini ta'minlashdagi kompleks ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Mazkur tadqiqot shuni asoslaydiki, inkorporatsiya nafaqat normativ-huquqiy hujjatlarni (NHH) ma'lum bir mantiqiy yoki xronologik tartibda jamlashdan iborat bo'lgan sof texnik jarayon, balki huquq ustuvorligini ta'minlash va huquqiy axborotdan fuqarolarning erkin, cheklovlarsiz foydalanishini kafolatlovchi fundamental huquqiy mexanizmdir.

Nazariy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki inkorporatsiya qonunchilikdagi ziddiyatlar, takrorlanishlar va huquqiy bo'shliqlarni identifikatsiya qilishning dastlabki, ammo muhim bosqichi hisoblanadi. Mavjud NHHlarni xronologik yoki tematik (tizimli) tartibda jamlash orqali huquqni qo'llash amaliyoti uchun qulay va shaffof huquqiy muhit yaratiladi. Biroq, bizning tahlilimiz O'zbekiston Respublikasi amaliyotida rasmiy inkorporatsiya imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayotganini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda nashr etilayotgan qonun hujjatlari to'plamlari ko'pincha qonun ijodkorligi jarayonlarining yuqori sur'atlaridan ortda qolib, ularning dolzarbligi va amaliy ahamiyatini sezilarli darajada pasaytirmoqda. Norasmiy inkorporatsiya, xususan, tijoriy nashrlar va elektron ma'lumotlar bazalari keng tarqalgan bo'lsada, ulardagi huquqiy axborotning ishonchliligi va rasmiy yuridik maqomi masalasi haligacha ochiq qolmoqda.

Qonunchilikka tez-tez o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi kuzatilayotgan hozirgi sharoitda an'anaviy statik (bosma) inkorporatsiya o'zining samaradorligini yo'qotmoqda. Biz tomonidan ilgari surilayotgan "dinamik raqamli inkorporatsiya" modeli NHHlarni nafaqat umumiy tartibda to'plashni, balki ularga kiritilgan barcha o'zgarishlarni real vaqt rejimida aks ettiruvchi, davlat tomonidan tasdiqlangan yagona elektron platformani nazarda tutadi. Ushbu platforma har bir huquqiy norma uchun uning oldingi tahrirlari va u bilan bog'liq boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga giperhavolalarni o'z ichiga olib, huquqiy axborotning to'liqligi, izchilligi va ishonchliligini ta'minlaydi. Bu, o'z navbatida, huquqiy monitoring samaradorligini keskin oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijasida inkorporatsiya qonunchilikni takomillashtirish uchun zarur bo'lgan muhim "diagnostika vositasi" ekanligi aniqlandi. NHHlarni tizimli ravishda bir joyga jamlash orqali bir xil ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalar o'rtasidagi takrorlanishlar, ziddiyatlar va huquqiy bo'shliqlar yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, tadbirkorlik faoliyatiga oid qonunosti hujjatlarini tizimli inkorporatsiya qilish ularning bir-biriga mos kelmasligini va ortiqcha byurokratik tartiblarning mavjudligini identifikatsiya qilish imkonini berdi. Shunday qilib, inkorporatsiya kodifikatsiya va konsolidatsiya kabi murakkab tizimlashtirish faoliyatlari uchun zaruriy axborot-tahliliy zamin yaratadi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tahlil va uning natijalari shuni ko'rsatadiki, inkorporatsiya jarayoniga zamonaviy raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish va uning diagnostik funksiyasidan unumli foydalanish milliy qonunchilik tizimini modernizatsiya qilish, uning shaffofligi, izchilligi va samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

O'tkazilgan mazkur tadqiqot natijalari shuni yaqqol ko'rsatadiki, huquq tizimini tizimlashtirish jarayonida inkorporatsiya oddiy texnik-yuridik faoliyat doirasidan chiqib, huquqiy tizimning barqarorligi, shaffofligi va samaradorligini ta'minlovchi fundamental ahamiyatga molik bosqich sifatida namoyon bo'ladi. U normativ-huquqiy hujjatlar majmuasini tartibga solishning birlamchi va zaruriy shakli bo'lib, kodifikatsiya hamda konsolidatsiya kabi murakkab tizimlashtirish usullarining asosini tashkil etadi. Tadqiqotning adabiyotlar tahlili qismida batafsil yoritilganidek, inkorporatsiyaning rasmiy va norasmiy, xronologik va tizimli (predmetli) turlari o'zaro uyg'unlikda faoliyat yuritib, huquqni qo'llovchi subyektlar va fuqarolar uchun qonunchilik manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Huquqiy tartibga solishning barqarorligi va qonun ustuvorligi prinsipi bevosita amaldagi qonun hujjatlarining to'liq, aniq va barcha uchun qulay shakldagi to'plamlarining mavjudligiga chambarchas bog'liqdir.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi O'zbekiston Respublikasida raqamli transformatsiya sharoitida inkorporatsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini chuqur tahlil qilish hamda uning samaradorligini oshirishga qaratilgan mezonlarni ishlab chiqish orqali belgilanadi. Xususan, Lex.uz kabi rasmiy elektron platformalarning rivojlanishi bilan bir qatorda, norasmiy elektron huquqiy bazalarning huquqiy madaniyatni yuksaltirishdagi o'rni va ahamiyati ilk bor kompleks tarzda ilmiy jihatdan o'rganildi. Shuningdek, qonunchilikdagi o'zgarishlarni real vaqt rejimida aks ettiruvchi dinamik inkorporatsiya mexanizmlarini joriy etishning nazariy-amaliy asoslari keng yoritib berildi. Bu yondashuv, o'z navbatida, normativ-huquqiy hujjatlarning eskirgan yoki o'z kuchini yo'qotgan qismlarini o'z vaqtida aniqlash va ularni amaliyotdan chiqarish imkonini beruvchi muhim omil hisoblanadi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqqan holda, milliy qonunchilikni tizimlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

Ushbu konsepsiyada normativ-huquqiy hujjatlarning rasmiy to'plamlarini (ham bosma, ham elektron shaklda) muntazam yangilab borishning aniq muddatlari, mas'ul davlat organlari va moliyalashtirish manbalari belgilanishi shart. Bu jarayon qonun ijodkorligi faoliyatining ajralmas va uzviy qismi sifatida institutsional jihatdan mustahkamlanishi lozim.

Sun'iy intellektga asoslangan qidiruv tizimini joriy etish, normativ hujjatlarning tarixiy tahrirlarini (versiyalarini) solishtirish imkoniyatini yaratish, o'zaro bog'liq normalarga giperhavolalar tizimini takomillashtirish orqali "aqlli" huquqiy muhitni shakllantirish zarur. Bu, huquqni qo'llovchilarning vaqt resurslarini tejashga va yuridik xatoliklarning oldini olishga xizmat qiluvchi muhim omil bo'ladi.

Huquqiy axborotni keng ommaga etkazishda muhim rol o'ynaydigan nodavlat tashkilotlar, yuridik firmalar va IT-kompaniyalar tomonidan yaratilayotgan elektron huquqiy platformalarning ishonchliligi va aniqligini ta'minlash maqsadida ixtiyoriy sertifikatlashtirish tizimini joriy etish taklif etiladi. Bu, sog'lom raqobat muhitini shakllantirib, huquqiy xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Bo'lajak huquqshunoslarda normativ materiallar bilan ishlash, ularni tizimlashtirish va tahlil qilishning zamonaviy ko'nikmalarini shakllantirish huquqiy islohotlarning muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim va strategik omil hisoblanadi.

Ushbu takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi O'zbekistonda qonunchilik bazasining tizimli yaxlitligini ta'minlash, huquqiy aniqlik darajasini oshirish hamda jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. «Adolat», 2018.
2. Мухамедов Ў.Х.Ўзбекистон Республикасида қонунчиликни тизимлаштиришнинг назарий ва амалий муаммолари. Юрид.фанлар.док.дис..автореф.-Т.2010
3. Одиқориев Х.,Мухамедов Ў. Қонунчилик жараёни кодекси: унинг зарурати, структураси ва мазмуни.//Давлат ва ҳуқуқ.2004.-№4
4. Dauletmuratov, T. 2024. QONUNCHILIKDAGI KOLLIZIYALARNI HAL ETISHDA NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARNI TIZIMLASHTIRISH MUAMMOLARI. Академические исследования в современной науке. 3, 46 (ноя. 2024), 47–51.
5. Piątek W., Kahl W. Bedeutung und Zukunft der Kodifikationsidee in Deutschland und Polen. – 2024.
6. Mertens B. Kodifikation, Dekodifikation, Rekodifikation //ZNR Zeitschrift für Neuere Rechtsgeschichte. – 2021. – Т. 43. – №. 1-2. – С. 1-29.
7. Szalma J. Re-Codification of the Hungarian Civil Code of 1959 (Starting in 1998) //42 Annales U. Sci. Budapestinensis Rolando Eotvos Nominatae. – 2000. – Т. 41. – С. 55.

8. Схаб-Бучинська Т. Я. Роль оціночних понять в обмеженні договірної свободи. – 2015.
9. Michl A. “In saeculo et ex saeculo”. Characteristics of the secular institutes //Warszawskie Studia Teologiczne. – 2021. – Т. 34. – №. 2. – С. 196-211.
10. Skřejpková P. The incorporation of Roman law into Bohemian municipal law in the 16th century //Zeitschrift für Ostmitteleuropa-Forschung. – 2009. – Т. 58. – №. 3. – С. 344-356.
11. Lohnig M. Shlezvig misoli: "Oraliq makonlar"ni imperiyaga integratsiya qilish, fuqarolik huquqini birlashtirish tafakkuri //JEHL. – 2025. – Т. 16. – В. 79.
12. Piątek W., Kahl W. Bedeutung und Zukunft der Kodifikationsidee in Deutschland und Polen. – 2024.
13. Mertens B. Kodifikation, Dekodifikation, Rekodifikation //ZNR Zeitschrift für Neuere Rechtsgeschichte. – 2021. – Т. 43. – №. 1-2. – С. 1-29.
14. Van Der Heijden M. J., Keirse A. Selecting the Best Instrument for European Contract Law //European Review of Private Law. – 2011. – Т. 19. – №. 5.
15. Makarov A. N. Die Kodifikation des Völkerrechts //Zeitschrift für Politik. – 1929. – Т. 18. – С. 505-522.
16. Delacasse K. K. Der Betrug in der ungarischen Strafrechtskodifikation an der Schwelle des 19. Jahrhunderts //Journal on European History of Law. – 2018. – Т. 9. – №. 2. – С. 240-246.
17. Marek K. Thoughts on codification //Heidelberg Journal of International Law (. – 1971. – Т. 31. – С. 1971.
18. O’Meara M., Kelliher F. Knowledge codification //Knowledge Management and Learning Organizations. – Cham : Springer International Publishing, 2021. – С. 25-50.
19. Weiss G. A. The enchantment of codification in the common-law world //Yale J. Int’l L. – 2000. – Т. 25. – С. 435.
20. Stevenson D. Costs of codification //U. Ill. L. Rev. – 2014. – С. 1129.
21. Cameron J. D. Codes and Codification //Can. L. Times. – 1917. – Т. 37. – С. 177.
22. Ishikawa H. Codification, decodification, and recodification of the Japanese civil code //The Scope and Structure of Civil Codes. – Dordrecht : Springer Netherlands, 2013. – С. 267-285.
23. Means R. C. Codification in Latin America: The Colombian Commercial Code of 1853 //TEx. L. REv. – 1973. – Т. 52. – С. 18.

24. Albăstroiu R. G. The Law-The Source Of Codification //logos, universality, mentality, education, novelty. Section: Law. – 2013. – T. 2. – №. 1. – C. 13-33.
25. Barak A. Towards Codification of the Civil Law //Tel Aviv U. Stud. L. – 1975. – T. 1. – C. 9.
26. Gambaro A. Perspectives on the codification of the law of property: an overview //European Review of Private Law. – 1997. – T. 5. – №. 4.
27. Zivkowska R., Przeska T. Codification of Civil Law //Collection Papers Fac. L. Nis. – 2014. – T. 68. – C. 251.
28. Lenaerts A. The general principle of the prohibition of abuse of rights: a critical position on its role in a codified European contract law //European Review of Private Law. – 2010. – T. 18. – №. 6.
29. Cacciatori E., Tamoschus D., Grabher G. Knowledge transfer across projects: Codification in creative, high-tech and engineering industries //Management Learning. – 2012. – T. 43. – №. 3. – C. 309-331.
30. Du Q., Ding N., Li J. Status and development of natural resources law in the codification of environmental law //Environmental Law Codification in China: Paradigm Change in Environmental Legislation. – Singapore : Springer Nature Singapore, 2025. – C. 137-165.
31. Voermans W. et al. Codification and consolidation in the European Union: A means to untie red tape //Statute law review. – 2008. – T. 29. – №. 2. – C. 65-81.
32. Veinla H. Codification of Environmental Law //Juridica Int'l. – 2000. – T. 5. – C. 58.